



BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINING AHAMIYATI

Mamatov Shuxrat Xolikulovich

Bojxona instituti

Maxsus-huquqiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Ergashev Jahongir Sheraliyevich

Bojxona instituti

Maxsus-huquqiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Norboyev Jasur Panji o'g'li

Bojxona instituti 4-kurs kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20486489>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil
Ma'qullandi: 15-may 2026 yil
Nashr qilindi: 31-may 2026 yil

KEY WORDS

bojxona organlari, tezkor-qidiruv qonunchiligi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Germaniya va AQSH, tergov organlari

ABSTRACT

Maqolada O'zbekiston Respublikasining bojxona sohasida sodir etilayotgan jinoyatlarning olini olish bo'yicha bir nechta xorij davlatlarining tajribasini o'rganib asosli takliflar berilgan. Ushbu maqolada rivojlangan davlatlarning kontrabanda va bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tajribani milliy bojxona tizimiga tatbiq etishning istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda bojxona organlarining ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Chunki bojxona organlari ichki bozorga noqonuniy tovarlar olib kirilishiga qarshi kurashib, bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali ularni qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil

26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida "O'zbekistonda - fuqarolarimiz, tadbirkorlarimiz va investorlarni har qanday vaziyatda ham ishonchli himoya qiladigan davlat bor, Konstitutsiya bor, qonunlar bor" ligini ta'kidlagan[1].

Xususan, O'zbekiston - 2030 strategiyasining 84-maqсадida - konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish nazarda tutilgan[2].

Mazkur maqsadga erishish yuzasidan tegishli vazifalar belgilab olingan. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalar sirasiga fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda

bojxona sohasidagi huquqbuzarlik ishlarini yuritishni takomillashtirish, bu borada xorij tajribasini o'rganib, ijobiy jihatlarini qonunchiligimizga tatbiq etish kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi

2018-yil 18-oktyabrda O'RQ-502-son qonunining 3-moddasiga binoan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish, fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish kabi vazifalar yuklatilgan [3].

Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda ularning ijobiy xususiyatlarini milliy jinoyat qonunchiligiga joriy etish jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Buning sabab shuki, milliy jinoyat qonunchiligini xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligi bilan qiyosiy o'rganish uning afzalliklarini aniqlash va yurtimizda jinoiy qonunchilikni rivojlantirish istiqbollari chuqurroq anglab yetishga yordam beradi.

Shuningdek, qonun loyihalarini xorijiy huquqiy amaliyot bilan har tomonlama chuqur qiyosiy tahlil qilish asosida ularni muhokama etish va sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko'tarishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tajribani qabul qilish ulardagi huquqiy normalarni qonunchiligimizga to'g'ridan to'g'ri ko'chirish degan ma'noni anglatmasligi kerak. Shunga asosan, biz tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi xorijiy jinoyat qonunchiligini tahlil qilishga va mamlakatimiz jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar kiritishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati hamda tezkor-qidiruv qonunchiligi va amaliyotiga mazmunan o'xshash bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish amaliyotiga joriy etish oson va qulay hisoblanadi.

Bunday davlatlar sifatida **Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Germaniya va AQSH** bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish qonunchiligi va amaliyotini misol keltirish mumkin. Shu bois, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishning asosiy ob'ekti sifatida Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, **Germaniya va AQSH** bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish qonunchiligi va amaliyoti tanlab olindi.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga solingan. Xususan, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda RFning tezkor-qidiruv qonunchiligi bilan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning huquqiy asoslari yaratilgan [4].

Rossiya Federatsiyasi Federal qonunining 8-moddasiga asosan, fuqarolarning turar joy daxlsizligiga bo'lgan huquqlarni cheklovchi tezkor - qidiruv tadbirining o'tkazilishiga sud qarori asosida yo'l qo'yilishi belgilangan.

Shu bilan birga, mazkur "Rossiya Federatsiyasi bojxona organlarini

2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"ning "bojxona organlarining ekspert-kriminalistika faoliyati" nomli 10-yo'nalishida bojxona organlarining ekspert-kriminalistika faoliyati yo'nalishida bojxona organlari ehtiyojlari uchun ekspertizalar imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish, bojxona ekspertizalarini o'tkazishga ketadigan vaqtni qisqartirish, ekspertizalarning yangi turlarini ekspert-kriminalistika amaliyotiga joriy qilish vazifalari belgilab olingan[5].

Rossiyalik olim V.G.Makarenkoning fikriga ko'ra, RF bojxona organlarini kriminalistik ta'minlashda, ya'ni bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda quyidagi kriminalistik ish uslublari qo'llaniladi:

- kriminalistik trassologiya;
- kriminalistik daktiloskopiya;
- kriminalistik xatshunoslik;
- materiallar, ashyolar va buyumlarni kriminalistik tadqiq qilish;
- kriminalistik foto, audio-video qayd etish;

- kriminalistik fonoskopiya;
- bojxona kriminalistik hisoblari;
- kriminalistik texnika vositalari [6].

Xulosa qilib aytganda, Rossiya Federatsiyasi bojxona organlarining bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash amaliyoti bu boradagi O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining amaliyoti bilan o'xshash hisoblanadi. Bugungi kunda Qozog'iston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga solingan.

Shuningdek, Qozog'iston qonunchiligida ko'rsatilgan umumiy guruhdagi

16-turdagi tezkor-qidiruv tadbiri terrorizmga qarshi operatsiyani o'tkazish chog'ida jismoniy shaxsga tegishli narsalarni shaxsiy tintuv va tintuv, transport vositalarini, shu jumladan texnik vositalardan foydalangan holda tintuv xolislar ishtirokisiz o'tkazilishi mumkinligi e'tiborga molik hisoblanadi va bu tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazishga qulaylik yaratadi.

Yuqoridagi Rossiya, Qozog'iston Respublikalari tajribalaridan tashqari, AQShning bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish amaliyoti o'rganilganda, mazkur sohada ilg'or tajriba to'planganligi ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari, rossiyalik olim M.V.Kondratevning fikriga ko'ra, AQShda narkotiklar kontrabandasini aniqlash maqsadida tezkor kuzatuv tezkor-qidiruv tadbiri doirasida AQShning chegaraldi hududlarida vertolyotlar va uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanilishi yaxshi samara berishini ta'kidlagan [7].

AQShlik olim Richard English jinoyatchilikka qarshi kurashishda kadrlar malakasini oshirish jarayonini tadqiq qilib, jinoyatlarga muvaffaqiyatli qarshi kurashishni amalga oshirish uchun kadrlar malakali bo'lishi kerak degan ilmiy fikrlarini ilgari surgan.

Xususan, mazkur AQShlik olimning fikriga ko'ra, jinoyat sodir etilgan bo'lsa, voqea sodir bo'lgan joyga javob beradiganlarga favqulodda javobgarlik yuklanadi. Bu mas'uliyat jinoyatchi(lar)ni voqea joyi va jabrlanuvchilar bilan bog'laydigan dalillarni aniqlash, to'plash, hujjatlashtirish va saqlashga qaratilgan. Ishga aloqador shaxslarni aniqlash va hibsga olish va hukm chiqarish uchun jismoniy yoki biologik dalillarni to'plash juda muhimdir. Jinoyat joyi tergovchilari (CSIs) bu dalillarni topish va ta'minlash uchun bitta imkoniyatga ega, Jinoyat joyi tergovchilari o'z vazifalarini yuqori darajada mahorat bilan bajarishlari uchun tegishli ta'lim va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyat joyi tergovchilari lavozimlarini to'ldirishda minimal malakalarni ishlab chiqishlari va ularga rioya qilishlari juda muhimdir[8].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida madaniy boyliklarni olib chiqilishi va olib kirilishini davlat tomonidan tartibga solinishida Bojxona qo'mitasi vakolatli organ sifatida belgilangan [9].

Hozirda dunyo bo'ylab har kuni millionlab dollarlik yuzlab san'at asarlari o'g'irlanadi va talon-taroj, o'g'irliklar natijasida qo'lga kiritilgan moddiy-madaniy boyliklar xorijiy davlatlarga kontrabanda yo'li orqali olib chiqib ketilishi hech kimga sir emas.

Xalqaro amaliyotda "kontrabanda" tushunchasi faqat predmetga nisbatan emas, balki, tovarlar yoki ashyolarni bojxona chegaralari orqali noqonuniy ravishda olib o'tish usullariga nisbatan ham ishlatiladi.

Madaniy boyliklarning noqonuniy harakatlanishiga qarshi kurashishning eng samarali vositalari, ayniqsa bojxona chegarasi orqali sodir bo'layotgan jinoyatlarga, xususan madaniy boyliklarning kontrabandasiga nisbatan, ikki tomonlama xalqaro shartnomalar bo'lishi kerak, ularning asosida xalqaro konvensiyalar va bitimlarni ishlab chiqish va konkretlashtirish kerak bo'ladi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, ko'p davlatlarda madaniy qimmatliklarning noqonuniy aylanmasining (*noqonuniy olib kirilishi va olib chiqilishi, o'g'irlab ketilishi*) oldini olishda,

ushbu huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy va jinoyat qonunchiligida alohida moddalar orqali javobgarlik masalalari belgilangan.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining 7.13-moddasida Rossiya Federatsiyasi xalqlarining madaniy merosi obektlarini (*tarixiy va madaniy yodgorliklar*) muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik [10] va Jinoyat qonunchiligida jinoyat obekti e'tiborga olinib, bir nechta normalarga ajratilgan. Jinoyat kodeksining 226-1-moddasida Kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi, radioaktiv moddalar, radiatsion manbalar, yadroviy materiallar, o'qotar qurollar yoki ularning asosiy qismlari, portlatish qurilmalari, o'q-dorilar, ommaviy qirg'in qurollari, ularning yetkazib berish vositalari, boshqa qurol-yarog'lar, boshqa harbiy texnika, shuningdek, ommaviy qirg'in qurollari, ularning yetkazib berish vositalari, boshqa qurol-yarog'lar, boshqa harbiy texnikani yaratishda foydalanish mumkin bo'lgan materiallar va moslamalar, shuningdek, strategik muhim tovarlar va resurslar yoki madaniy boyliklar yoxud qimmatbaho yovvoyi hayvonlar va suv biologik resurslari kontrabandasi madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda bojxona chegarasidan o'tkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan [11].

Germaniya qonunchiligida madaniy boyliklarni xorijga olib chiqish uchun maxsus ruxsatnoma ham nazarda tutilgan. Bunday ruxsatnoma Madaniyat vazirligi yoki Oliy va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan beriladi yoki Germaniyadan madaniy boyliklarni olib chiqish milliy meros yoki fanga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, umuman berilmaydi.

Himoyalangan narsalarni Germaniyadan ruxsatsiz chet elga olib chiqish ozodlikdan mahrum qilish va jarima yoki ushbu jazolardan birini qo'llash orqali jazolanadi. Bir vaqtning o'zida ashyolarni musodara qilish aybdor yoki uchinchi shaxslarning mulki ekanligidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.

Xalqaro tajribalarni o'rganishda shuni alohida ta'kidlash kerakki, madaniy boyliklarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tishda yoki kontrabanda yo'li bilan xorijiy davlatlarga chiqib ketishi bilan bog'liq huquqbuzarlik holatlarini ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab ma'muriy va jinoiy javobgarliklar belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida esa "Madaniy boyliklar kontrabandasi" tushunchasiga ta'rif berilmagan.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda "kontrabanda" tushunchasi faqat predmetga nisbatan emas, balki, tovarlar yoki ashyolarni bojxona chegaralari orqali noqonuniy ravishda olib o'tish usullariga nisbatan ham ishlatiladi.

Madaniy boyliklarning noqonuniy harakatlanishiga qarshi kurashning eng samarali vositalari, ayniqsa bojxona chegarasi orqali sodir bo'layotgan jinoyatlarga, xususan madaniy boyliklarning kontrabandasiga nisbatan, ikki tomonlama xalqaro shartnomalar bo'lishi kerak, ularning asosida xalqaro konvensiyalar va bitimlarni ishlab chiqish va konkretlashtirish zarur bo'ladi.

Shu bilan birga, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik ish uslublarini takomillashtirishda kelgusida quyidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatiga va milliy qonunchilikka joriy etish maqsadga muvofiq:

- Rossiya Federatsiyasi bojxona organlarining tezkor-qidiruv faoliyati tajribasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari Kontrabandaga qarshi kurashish boshqarmasi va uning hududiy bojxona boshqarmalaridagi bo'limlari tarkibida Tezkor-texnik guruhlar tashkil etish va ularni malakali mutaxassislar bilan jamlash;

- Germaniya bojxona organlari tezkor-qidiruv faoliyati tajribasiga asosan, sodir etilayotgan bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish bo'yicha o'tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlari jarayonida protsessual hujjatlarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari Kontrabandaga qarshi kurashish boshqarmasi va uning hududiy bojxona boshqarmalaridagi bo'limlari hamda Surishtiruv va ma'muriy

amaliyot boshqarmasi va uning hududiy bojxona boshqarmalaridagi bo'limlari xodimlari ishtirokida "Doimiy o'zaro harakat qiluvchi tezkor-tergov guruhlarini" tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish;

- bojxona organlari Kontrabandaga qarshi kurashish tezkor tuzilmalari faoliyatida bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda o'tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlarida (TQT) uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar)dan foydalanishni yo'lga qo'yish;

- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida "madaniy boyliklar kontrabandasi" tushunchasi kiritish, ya'ni "**madaniy boyliklar kontrabandasi** - madaniy boyliklarni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki ruxsatnomasiz bojxona chegarasidan olib o'tish bilan bog'liq qilmish".

Xulosa qilib aytganda, mazkur takliflarni kelgusida bojxona organlari faoliyatiga joriy etish, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik ish uslublarini takomillashtirishga va ushbu sohadagi jinoyatlarga muvaffaqiyatli qarshi kurashish imkoniyatini yaratadi.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2025 yil 26 dekabr Murojatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16-fevraldagi PF-21-son farmoni <https://lex.uz/docs/-8050769>
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida" O'RQ-502 Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4000640>
4. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_7519/c203deb16e98d44d7e2e92faf15648254560e0ee. Б-1.
5. <http://static.government.ru/media/files/gie4rZ826srWmBy2w8bltqyFkseUEHvO.pdf>
6. Makarenko V.G. "Общая характеристика мер по совершенствованию техникокриминалистического обеспечения в таможенных органах Российской Федерации". Научная статья. Юридический университет Самарского университета. Том № 5, № 2. г. 2019. Стр.138.
7. Кондратьев М.В. "Оперативно-розыскное противодействие незаконному обороту наркотиков в США". Научная статья. Вестник Сибирского юридического института МВД России. № 4. (41) г.2020. Стр.-96.
8. Dr. Richard english. Beyond the yellow tape, Why crime scene investigations fail. Science lawforensic science. Dedication & commitment toexcellence. March 20, 2023. P. 1.
9. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/24377>
10. Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi 30-dekabr 2001 y. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/
11. Rossiya Federatsiyasi jinoyat kodeksi Iyun 13, 1996 y https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699